

## G'AZNAVIYLAR DAVLATIDA ICHKI SIYOSAT VA DAVLAT BOSHQARUVI

**Sultonova Farida O'lmas qizi**

*TDSHU, 2-kurs magistratura talabasi, Tarix (mamlakatlar va mintaqalar) yo'nalishi.  
fsultonova3199@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada g'aznaviylar davri markaziy boshqaruv tizimi, devonlar faoliyati, saroyda faoliyat yuritgan ishchi sinflar, viloyat va shaharlardagi boshqaruv tuzilmalari, har bir mansabning bajaradigan vazifalari haqida ma'lumot berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *g'aznaviylar, markaziy boshqaruv, devon, hukmdor unvonlari.*

**Abstract:** *This article provides information about the central administration system during the Ghaznavid period, the activities of divans, the working classes that worked in the palace, administrative structures in regions and cities, and the duties of each position.*

**Key words:** *ghaznavids, central administration, divan, ruler's titles.*

G'aznaviylar davri boshqaruv tizimi ko'p jihatdan somoniylar, qoraxoniylar zamonidagi davlat boshqaruv tizimlariga yaqin va o'xshash bo'lgan. Chunki har qanday boshqaruv tizimi mavjud ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy sharoitga bog'liq bo'ladi. Boshqa tomondan esa G'aznaviylar hukmronligi ostida bo'lgan Xuroson, Seyiston, Kobul, G'azna kabi viloyatlar somoniylar davlatining ajralmas tarkibiy qismlari bo'lib kelganliklarini nazarda tutsak, boshqaruvdagi o'xshashliklar va yaqinliklar sababi ma'lum bo'ladi.

Mahmud G'aznaviy davrida rivojlanishning yuqori cho'qqisiga erishgan va hududlari kengaygan imperiya davrida bu hududlarni boshqarish uchun samarali boshqaruv apparatini yaratish lozim edi. Abbosiylar xalifalaridan keyingi davrda mahalliy hukmatlar harbiy elitalar tomonidan yaratilgan. Harbiylar harakatlarda muvaffaqiyatga erishishiga qaramasdan, ular imperiyani boshqarish uchun muayyan bilim va tajribaga ega emas edilar. Shu sababli, Abbosiylar singari ular ham shunday tajribaga ega bo'lgan shaxslarni ishga olishgan. Ayni vaqtda harbiylar mamlakat rivojlanishi uchun muhim bo'lgan tarmoqlar savdo va qishloq-xo'jaligi xavfsizligini ta'minlagan. Hokimiyat turklar, hukumatni boshqarish esa, bu sohada ma'lum tajribaga ega forslar qo'lida bo'lgan.

G'aznaviylar davlatida sulton faqat simvol bo'lmasdan, davlat mexanizmlarining ishlashi unga bog'liq bo'lgan. Bosh vazir barcha imtiyozlarga ega bo'lishga qaramasdan, u sultonga bo'ysungan. Bayhaqiy va Gardiziy asarlarida yozilishicha hukmdor va shahzodalar uchun "Amir" va "Sulton" unvoni qo'llanilgan. Bu hukmdorlikning ma'naviy alomatlaridan sanalgan. Hukmdorlarning bundan tashqari, shaxsiy unvonlari ham bo'lgan. Xususan, Sobuqteginning "Muin ud-davla" unvoni bo'lgan. Mahmud Xuroson sipohsolori bo'lgan paytda, somoniy hukmdorlar tomonidan unga "Sayfuddavla" unvoni berilgan. Arab halifasi Qodir Billah tomonidan unga

“Yaminuddavla”, “Aminulmilla” unvoni berilgan. Mahmuddan keyin taxtga chiqqanlar: Ma’sud “Jaloluddavla”, Mavdud ibn Ma’sud “Kutbul milla va jamoliddin”, Ali Abulhasan “Bahouddavla”, Abdurrashid “Izzuddavla”, Farruxzod “Jamoluddavla”, Ibrohim “Zahiruddavla”, Ma’sud III “Alouddavla”, Shirzod “Kamoluddavla”, Arslon “Sultonuddavla”, Bahromshoh “Yaminuddavla”, Xusravshoh “Muizzuddavla”, Xusravmalik “Tojuddavla” unvonlarini olishgan <sup>9</sup>.

Hukmdorning moddiy alomatlariga: tanga – G‘azna hukmdorlari hali somoniylar boshqaruvida bo‘lgan paytdan poshlab tamga chiqarishgan. 995 yilgacha bo‘lgan tangalarda somoniy humdor Nuh ibn Mansurning ismi bo‘lgan. G‘aznaviylar mustaqil davlat bo‘lgandan so‘ng, tangalarga o‘z ismlarini berishgan; taxt; toj; hil‘at; uzuk; poytaxt – davlat poytaxti G‘azna bo‘lgan; bayroq kirgan.

G‘aznaviylar davrida vazirlik idorasi eng muhim ma’muriy organ edi. Bosh vazir sultondan keyingi ikkinchi shaxs bo‘lsa ham, amalda u imperiyani boshqarishga mas’ul edi. Buning sababi, sultonlar harbiy yurishlarda, safarlarda ko‘p vaqtini o‘tkazgani bo‘lgan. G‘aznaviylar davlatida idoraviy tashkilot uch qismga bo‘lingan. Bular: 1) Markaziy tashkilot 2) Viloyat tashkilotlari 3) Tuman tashkilotlari. G‘aznaviylar davrida eng muhim vazirliklar quyidagilar bo‘lgan:

1. Devoni Vuzarot: g‘aznaviylar davlatidagi idora tashkiloti bo‘lib, uni vazir boshqargan. Sultondan keyingi ikkinchi lavozim vazir bo‘lib, vazirni lavozimiga sultonning o‘zi tayinlagan. Vazirning yana bir lavozimi, u qo‘shinga qo‘mondonlik qila olar edi. Xususan, Ma’sud davrida vazir bo‘lgan Ahmad Abdulsamad 1035-yilda sultonning topshirig‘iga ko‘ra Balh va Toxaristonda chiqqan isyonni bostirish uchun yuborilgan. Vazir ushbu topshiriqni muvaffaqiyatli nihoyasiga yetkazgan. Bayhaqiyning so‘zlariga ko‘ra, vazir shaxsan urushda qatnashmagan, uning vazifasi qo‘shinni boshqarish, hududlardagi isyonni boshqarish, osoyishni ta’minlab, o‘sha hududga yangi hokim tayinlash bo‘lgan. Vazir sultonga uning safarlarida va harbiy yurishlarida hamrohlik qilgan. Faqat sulton Hindistonga yurishida uning vakili sifatida Xurosonda qolgan. Boshqa vaziyatlarda esa bu vazifa shahzodalarga qoldirilgan. Vazir saroyda sultondan keyin farmon chiqarish huquqiga ega bo‘lgan.

2. Devoni arz: armiyaning barcha ishlari bu devon zimmasida edi. Bu devonning vazifasi qo‘shinda tartib-qoidalarini o‘rnatish, statistik ma’lumotlarni tayyorlash, qo‘shindagi shaxslarni ro‘yxatga olish va qo‘shinga maosh to‘lashdan iborat edi <sup>10</sup>. G‘aznaviylar harbiy jihatdan qudratli bo‘lgan va doimiy ravishda boshqa davlatlarga harbiy safarlar uyushtirgan. Demak, bu devon g‘aznaviylar saltanatida eng muhim devonlardan biri bo‘lgan. Bu imperiyadagi harbiy kuchning asosini sultonga sodiq bo‘lgan mahalliy va xorijiy professional harbiy qullar tashkil etgan. Qo‘shindagi eng yuqori lavozim “Hojib” hisoblangan. Bu devonning boshlig‘i sohibi devoni arz hisoblangan. U sulton tarafidan tayinlanagan. U sultonning barcha rasmiy va shaxsiy

<sup>9</sup> C.E. Bosworth. The Titulature of the Early Ghaznavids. Oriens, Vol. 15 (Dec. 31, 1962), 216-217 pp

<sup>10</sup> M.Mirahmadi. Nezām-e hokomat-e Irān dar dorān-e eslāmī (The System of Iranian Government in the Islamic Era). Tehran: Institute for Cultural Studies and Research.1989. 182 p

qabullarida ishtrok etish huquqiga ega bo'lgan. Noibi arz lavozimi ham bo'lib, o'q-dorilarni nazorat qilgan va sohibi devoni arz vafot etsa, uning joyini egallagan.

3. Devoni Raso'el: bu devon mamlakat ichki va tashqi hujjatlari, farmonlar, maktublar, ma'muriy buyruqlar, viloyatlar bilan aloqalar bilan shug'ullangan. Devon boshlig'i Sohibi devoni raso'il deb nomlanagan. Bu devonning asl funksiyasi davlatga oid hujjatlar bilan shug'ullanish bo'lgan. Bu devonda muhrlangan maktublar xizanai hujjat deb atalgan yerda saqlangan. Shuningdek, devonda faoliyat olib boradigan shaxslar ismlari, vazifalari, vazifa qarshiligida ularga to'lanadigan maoshlarning ham hujjatlari bo'lgan. Bu devonning yana bir vazifasi ta'lim berish bo'lib, Abulfazl Bayhaqiy ham kichik yoshda bu devonga qabul qilingan. U Sulton Ma'sud zamonida sohibi devoni raso'ilga tayinlanishi tavsiya etilgan, ammo yoshi kichikligi sababli bu lavozimga erishmagan. Sulton Abdurashid davrida esa shu lavozimda faoliyat olib borgan <sup>11</sup>. Sohobi devoni raso'il bo'lish uchun tajriba, bilim, sadoqat, to'g'rilik va irsiyat ham muhim bo'lgan. Uning vazifasi sultonning halifa, mustaqil va yarim mustaqil hukmdorlar, amaldorlar bilan yozishmalarini yuritish bo'lgan. Maktublarni yozib, sultonga muhr qo'ydirish uchun olib borgan. Juda muhim va maxfiy maktublar sultonning o'zi tomonidan yozilgan. Sohobi devoni raso'il elchilar bilan olib borilgan muzokaralarda ham qatnashgan. Sohobi devoni raso'ilning qo'l ostidagi xizmatchilar kotiblar hisoblangan. Kotiblar ahloqli, fazilatli, adabiyot, she'riyat, hattotlik bilimlarini bilishi talab etilgan. Bayhaqiyning yozishicha, Bunasr Mushkan kotiblikda eg yaxshisi bo'lgan.

Qo'shin safarga chiqadigan vaqtda, safar haqida sultonni xabardor qilish uchun kotiblardan biri sohibi baridi lashgar etib tayinlangan. Sulton qo'mondonligidagi safarlarda sohibi devoni raso'il shaxsan qatnashgan.

Bu devondagi yana bir lavozim devonbon – devonning xavfsizligini ta'minlagan va muhim hujjarlarni qo'riqlagan bir guruh bo'lgan. Muharrir – yozishmalar bilan shug'illangan va kotiblardan daraja jihatdan pastda turgan. Mutarjim – asosan hindchani bilgan shaxslardan tanlab olingan tarjimonlar.

4. Devon al-Barid: bu devon davlat pochta xizmati vazifasini bajarib, poytaxt va viloyatlar o'rtasida razvedka ma'lumotlari aylanishiga mas'ul edi. Barcha turdagi xatlarni devoni raso'ilga yetkazib bergan. U viloyatlardagi hokimlar va boshqa davlat idoralari xodimlarining faoliyati to'g'risida hisobotlar tayyorlardi <sup>12</sup>. Ushbu devon boshlig'i sohibi barid deb atalgan va viloyatlarda ham sohibi baridlar bo'lib viloyat nomi bilan ismlari yuritilgan (sohibi baridi Ray, sohibi baridi nishopur kabi).

Rasmiy xabarchining qo'lga tushish ehtimoli katta bo'lganda, sayyohlar yoki savdogarlar xat tashib berish vazifasini bajaragan.

5. Devoni Ishraf: bu devon poytaxt va viloyatlardagi boshqa devonlar va ularning xodimlarining ma'muriy va moliyaviy faoliyatini nazorat qiluvchi nazorat

<sup>11</sup> G.Nuho'g'lu. Beyhaki tarihini gore gaznelilerde devlet teskilati va kultur. Istanbul.1995.250 s

<sup>12</sup> M.Mirahmadi. The System of Iranian Government in the Islamic Era. Tehran: Institute for Cultural Studies and Research.1989. 205 p

organi edi. Bu devon butun imperiya bo'ylab razvedka to'plash va josuslik operatsiyalarida Devon al-Barid bilan birga ishlagan. Ushbu devonni boshqargan shaxs Mushrif deb atalgan. Mushrifni sultonning shaxsan o'zi tayinlagan va unga yordamchilar ham tayinlangan. Viloyat mushriflari ham saroy mushrifiga hisob bergan. Bu devonda Mushrifi dargoh – saroyda sarflanadigan xarajatlarga mas'ul shaxs; Mushrifi g'ulomoni saroy – saroydagi qullar hatti-harakatiga ko'z-quloq bo'lib turuvchi shaxs; ayg'oqchilar tizimi faoliyat olib borgan.

6. Divoni Istifo: mustaqil bir devon emas. Bu devon devoni vuzarotning hujjatlarini yuritish bilan shug'illangan. Kengash boshlig'i mustavfiy bo'lib, davlatning barcha moliya xodimlari boshlig'i hisoblangan. Ushbu devonning vazifasi xazinaga kirib-chiqadigan mollarni qayd etish bo'lgan. Soliq yig'uvchi kishilar ham soliqlar haqidagi ma'lumotlarni bu devonga bergan. Mustavfilar sulton bilan birga safarga chiqqan, shahzodalar bir viloyatga noib etib tayinlansa, ularga mustavfi ham tayinlangan<sup>13</sup>.

G'aznaviyalarda viloyatlar amir, sipohsolor yoki solor unvoniga ega shaxslar tomonidan boshqarilgan. Yarim mustaqil hududlar esa, valiy tomonidan boshqarilgan. Ikkala hudud ham markazdan kelgan topshiriqlarni so'zsiz bajarishi talab etilgan. Amir, sipohsolor viloyat qo'shinlari qo'mondoni hisoblangan. Amir, sipohsolor sulton tomonidan tayinlanagan, ularning vazifasi o'sha hududni ximoya qilish, qo'zg'olonlar chiqsa bostirish, soliqlarni yig'ish va xazinaga jo'natish, aholini ximoya qilish va ular bilan yaxshi munosabatda bo'lish kabi vazifalarni bajargan. Viloyatlarda ham markaziy hukmatda bo'lgani kabi oltita devon faoliyat olib borgan va ayni vazifani bajargan. Shaharlarda boshqaruv rais tomonidan olib borilib, sulton tomonidan tayinlanagan. Tumanlar boshqaruvi bilan esa zaim nomi bilan ataluvchi shaxs shug'illangan. Shahar osoyishtaligini ta'minlab berganlar esa shahna deb yuritilgan. Ular sulton tomonidan vazifasiga tayinlangan. Amil shahardagi yer-mulk tizimi bilan shug'illanib, soliq yig'ish vazifasini bajargan. Uning vazifasida soliqlarni hisob-kitob qilish, askarlarga maosh to'lash, urushga qo'shiladigan askarlarni ajratish bo'lgan. Muhtasib shahardagi shariy qonun-qoidalarni nazorat qilib turgan.

Saroyda bir qancha amaldorlar faoliyat olib borgan. Vakili dar yoki vakili xos – saroydagi eng yuksak martabali vazirlardan biri hisoblanib, saroy xazinasini va soliqlaridan kelgan daromadlardan oshxona, novvoyxona, otxona, saroydagi barcha ish bajaruvchilarga mablag' ajratuvchi vazifasini bajargan. Bundan tashqari ziyoyi xosdeb nomlanadigan hukmdorning shaxsiy mulki va xazinasini boshqargan.

Amiri harros yoki valiye harros – zindon boshlig'i hisoblanib, sultonning bergan jazolarini amalga oshirgan. Nizomulmulkning yozishicha, amiri harros saroydagi e'tiborli mansablardan biri bo'lib, martaba jihatdan hojib-i bozorgdan so'ng turgan. Chunki uning vazifasi siyosat bilan bog'liq bo'lgan. Sulton kimningdir aybdor ekanligini aytganda, amiri harros o'sha shaxsga nisbatan zarur choralarni ko'rgan (oyoq-qo'lini

خواجہ ابوالفضل محمد بن حسین بیہقی، تاریخ بیہقی، توصیحات و تعلیقات از منوچہر دانش پڑوہ، تہران، ۱۳۷۶. ص ۳۹۰

kesish, dorga osish, kaltaklash, zindonga tashlash, quduqqa tashlash kabi). Amiri harrosda hamisha nog'ora, bayroq va navbatchilar bo'lgan. Odamlar sultondan ko'ra ko'proq undan qo'rqqanlar. Saroyda kaltakchilardan kamida ellik kishi bo'lishi kerak bo'lgan. Ulardan yigirma kishi tilla cho'p bilan, yigirmatasi kumush cho'p bilan, o'ntasi katta kaltaklar bilan qurollangan. Amiri harros hali aniqlashmagan bir jazo turini amalga oshirganda, o'ziga ham ayni jazo turi qo'llanilgan. Bundan tashqari, elchilarni kutib olish marosimlarida ham qatnashgan <sup>14</sup>.

Og'achi – davlatda sulton va amaldorlar o'rtasidagi aloqani ta'minlab bergn shaxs. Bayhaqiyning asarida bu lavozim egalari hodim yoki hassa hodim deb yozilgan va saroy haramiga kirib chiqishiga ruxsat berilgan. Sulton saroyda, ovda, safarda, chodirda, qayerda bo'lsa ham, og'achi u bilan birga bo'lgan. Sultonga bir xabar keltirilsa, birinchi og'achiga berilgan, so'ng og'achi xabarni sultonga yetkazgan. Kelgan kishining sulton oldiga kirishga ruxsati bo'lsa, og'achi bilan kirgan, agar ruxsati bo'lmasa sultonning xabari ham og'achi orqali yetkazilgan.

Qozi – malakatdagi adliya ishlarini boshqargan. Unga maosh to'langan, xiyonat qilishlarining oldini olish uchun. Ularning ishlay nozik bo'lib, hukm chiqarish ularning qo'lida <sup>15</sup>.

Pardador – qabul kunlarida saroy eshigidagi pardani tushirish va ko'tarishga mas'ul bo'lgan amaldor. Padadori xos lavozimi ham bo'lib, ular sultonning buyruqlarini kerakli joylarga yetkazib bergan. Sulton saroyidan tashqari, boshqa davlat amaldorlarining ham pardadorlari bo'lgan.

Mehtari saroy – sultonga yaqin amaldorlardan biri hisoblanib, hukmdor safarlarida hamrohlik qilgan, hukmdorning saroyiga, haramiga, chodiriga kirishiga ruxsati bo'lgan. Ba'zi masalalarda hukmdor u bilan fikrlashgan.

Dabiri saroy – saroydagi yana bir amaldor bo'lib, dabiri g'ulomon deb ham atalgan. Vazifasi saroydagi qullarning ro'yxati qilingan daftarni yuritish bo'lgan.

Oxuru salor – saroyning va hukmdorning oxuriga bosh bo'lib, uning bir qancha xizmatchilari ham bo'lgan. Sulton Ma'sud davrida, oxuri salorlik vazifasidagi shaxs qo'shinga qo'mondonlik qilish vazifasini bajargan. Bayhaqiyda yozilishicha Ma'sud davrida oxuri salor bo'lgan Ali Nushtegin 1031 yilda Kirmondagi qo'zg'olonlarni bostirish uchun yuborilgan va u yerning voliysi etib tayinlangan.

Xazinador – saroyda muhim bir joyda qo'qiqlanadigan xazinani kerak vaqtda ishlatilishi, xayriya etilishi yoki sovg'a qilinishiga mas'ul bo'lgan. Uning qo'l ostida dabironi xazina, xazina mushriflari kabi yordamchilari bo'lgan. Saroyga keladigan har qanday turdagi qimmatbaho sovg'alar, tangalar, taqinchoqlar xazinador tomonidan ro'yxatga olinib, xazinaga qo'shilgan. Xazinadan ketadigan sovg'alar, xayriyalar ham ayni shaklda ro'yxat qilingan. Xazinador muhim lavozim hisoblanib, uning sipohsolorlik vazifasigacha ko'tarilgani – Sulton Mahmudning xazinadori Ahmat

<sup>14</sup> Nizomulmulk.Siyosatnoma.Toshkent. Yangi asr avlodi, 2008. 126 b

<sup>15</sup> O'sha kitob, 45 b

Yinoltegin Ma'sud davrida Hindiston sipohsolari bo'lgani ma'lum.

Sohibxabar – Muhiy (xabarchi) – mamlakatda bo'ladigan butun qoidabuarliklardan sultonni xabardor qilish ularning vazifasi hisoblanadi. Sohibxabar shaxsan sulton tomonidan tayinlangan, unga xazinadan maosh ajratilgan. Sultondan boshqa hech kim ularning nima ish bilan shug'illanishini bilmagan <sup>16</sup>.

Jomedor – jomexonaning boshlig'i bo'lib, sultonning hil'ati va boshqa kiyimlari saqlanadigan joyni boshqargan. Jomedorlarning hojib va salor vazifasigacha ko'tarilgan.

Davaddor – muhim bo'lgan hujjatlar, maktublar, nishonlar, sultonga tegishli bo'lgan kitoblarning muhofazasi bilan shug'illangan. Sultonga kelgan maktublarni olgan va sultonga yetkazib bergan.

Chavgandor – sultonning chavgonini tashigan shaxs. Bayhaqiyda Sulton Mahamudning chavgondori Bektegin Hojib Ma'sud davrida salorlik vazifasigacha ko'tarilganligi haqida ma'lumot mavjud.

Xonsolor – sulton oshxonasining bosh oshpazi hisoblanadi.

Choshnigir – sulton ovqatini tayyorlab, dasturxon tuzagan, sulton zaharlanishining oldini olish maqsadida, unga berilgan taomlarni birinchi o'zi yeb ko'rgan.

Sharobdor – sharobxona boshlig'i bo'lib, sharobdori xos deb ham ataladi.

Rasuldor – elchilarni kutib olishga mas'ul shaxs. Uning vazifasi elchini belgilangan manzilda kutib olish va uni joylashtirish, elchining dargohga kelib ketishini nazorat qilish, elchi kelgan davlat hukmdoriga sulton tarafidan berilgan sovg'a va maktublarni elchiga berishdir.

Nadim – hukmdorning bo'sh vaqtlarida u bilan birga vaqt o'tkazgan shaxslar. Nadimlar she'riyat, nujum, Qur'on, tafsir, fiqh, tibbiyot kabi sohalardan xabardor bo'lgan, fazilatli, ilmi, dindor, sir saqlovchi, qurol-aslahalardan ustalik bilan foydalana oluvchi shaxs bo'lishlari kerak bo'lgan. Nizomulmulk saroyda 20 ga yaqin nadim borligi haqida yozgan. Bu tartib ularga somoniylardan o'tgan. Sulton nadimlari har tomondan ta'minlangan bo'lib, xizmatchilar orasida xurmat-e'tiborli bo'lishlari, o'z qadrlarini bilib, sultondga sodiq bo'lishlari kerak. Kasbi, amali bor kishi nadimlikka tayinlanmagan. Kimga nadimlik mansabi berilsa, unga boshqa mansab berilmagan. Chunki sulton oldidagi huquq va martabasidan foydalanib, odamlarga azob berishi mumkin. Nadimlarning ba'zilarining o'tiradigan joylari, ba'zilarining turib xizmat qiladigan joylari bo'ladi <sup>17</sup>.

Tabiboni xos – sultonning sog'lig'ini nazorat qilib turgan kishilar. Shuningdek, ular rutbasi baland bo'lgan amaldorlar sog'lig'iga ham qaragan.

Sulton imomi – peshnamozi sulton – sulton namoz o'qiganda unga imomlik qilgan shaxs. Sulton imomi shahzodalarga diniy bilimlar berish bilan ham shug'ullangan.

<sup>16</sup> Nizomulmulk.Siyosatnoma.Toshkent. Yangi asr avlodi, 2008. 66 b

<sup>17</sup> Nizomulmulk.Siyosatnoma.Toshkent. Yangi asr avlodi, 2008. 91b

Farroshlar – ularning bir qancha vazifalari bo'lib, bular: sulton qarorgohini jihozlash, sulton safarga chiqishidan oldin, kerakli narsalarni tayyorlash, safarga sulton bilan ketib, uning chodirini qurish, saroydagi boshqa shu kabi ishlar bilan shug'illangan. Farroshlar orasida sultonning shaxsiy farroshlari bo'lib, ular farroshi sulton deb atalgan<sup>18</sup>.

Chopar – yo'llarda choparlik xizmati bo'lib, ularning oylik xarajatlari va zarur bo'lgan narsalar berilishi kerak. Shunday yo'l tutilsa, ellik farsang masofadan ham har qanday maktub yetib keladi. Vazifalarini yaxshi bajarishlari uchun ularga naqiblar berilishi kerak<sup>19</sup>.

G'aznaviyalar davlati ichki siyosati va devon tuzilishi butunlay yangi tuzilma hisoblanmasdan, o'zidan oldingi sulola hisoblangan somoniylardan andoza olingan. Hududlar boshqaruvida ham shunday tizimdan foydalanilgan. Mahmud G'aznaviy davridan boshlab, boshqaruv tizimi aniq-qonun qoidalar asosida tashkil qilingan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. C.E. Bosworth. The Titulature of the Early Ghaznavids. *Oriens*, Vol. 15 (Dec. 31, 1962).
2. Nizomulmulk. *Siyosatnoma*. Toshkent. Yangi asr avlodi, 2008
3. M.Mirahmadi. *The System of Iranian Government in the Islamic Era*. Tehran: Institute for Cultural Studies and Research. 1989.
4. G.Nuho'g'lu. *Beyhaki tarihini gore gaznelilerde devlet teskilati va kultur*. Istanbul. 1995.
5. خواجه ابوالفضل محمد بن حسين بيهقي، تاريخ بيهقي، توصيحات و تعليقات از منوچهر دانش پژوه، تهران. ۱۳۷۶.

خواجه ابوالفضل محمد بن حسين بيهقي، تاريخ بيهقي، توصيحات و تعليقات از منوچهر دانش پژوه، تهران. ۱۳۷۶. ص ۴۹۹<sup>18</sup>

<sup>19</sup> Nizomulmulk. *Siyosatnoma*. Toshkent. Yangi asr avlodi, 2008. 88 b